Bugungi kunda jahon iqtisodiyoti globallashev va raqamli transformatsiya bosqichiga o'tishi bilan davlatlarning fiskal siyosati hamda soliq ma'murchiligi tizimiga nisbatan talablar tubdan o'zgardi. Zamonaviy soliq tizimi nafaqat budjet daromadlarini ta'minlovchi mexanizm, balki tadbirkorlik muhitini rag'batlantiruvchi va "yashirin iqtisodiyot" ulushini kamaytiruvchi strategik vositaga aylandi. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlarning markazida ham aynan soliq ma'murchiligini soddalashtirish va uning samaradorligini oshirish masalasi turibdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmon va qarorlarida soliq organlari faoliyatini "Soliqchi — ko'makchi" tamoyili asosida qayta tashkil etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Mazkur yondashuv soliq ma'murchiligini nazorat qilish funksiyasidan servis ko'rsatish modeliga o'tkazishni taqozo etadi. Biroq iqtisodiyotning raqamli sektorini tartibga solish, soliq bazasini kengaytirish hamda ma'muriy xarajatlarni optimallashtirish borasida hali o'z yechimini kutayotgan qator masalalar mavjud.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

G'arb iqtisodchilari S. Fisher, R. Dornbush va R. Shmalenzi [1] fikricha, soliq siyosati mustaqil tushuncha hisoblanmaydi. Ular soliq siyosati tushunchasiga fiskal siyosat orqali yondashadilar. Fiskal siyosat esa davlatning o'z daromadlari va xarajatlari bo'yicha qarorlar qabul qilishi sifatida izohlanadi, deb ta'kidlashadi.



A. V. Aronov va V. A. Kashinlar [2] esa maksimal soliq siyosatining mazmunini soliq siyosatining asosiy strategiyasi sifatida qaraydilar. Ularning fikricha, soliqlar sonini oshirish, soliq stavkalarini oshirish hamda soliq imtiyozlarini kamaytirish soliq siyosatining strategik maqsadlari sifatida qabul qilinishi mumkin.

I. A. Mayburov [3] soliq islohotini soliq tizimini tubdan o'zgartirish va uni davlat soliq siyosatining yangi mazmuniga moslashtirish jarayoni sifatida talqin qiladi.

N. M. Dementeva [4] soliq siyosatini davlat iqtisodiy siyosatining in'ikosi ekanligini ta'kidlab, uning mustaqil ahamiyatga egaligi hamda soliqlarning ilmiy nazariyasiga asoslanishi lozimligini qayd etadi. Muallifning fikricha, amalga oshirilayotgan soliq siyosatining natijalari ko'p jihatdan davlat o'z iqtisodiy siyosatiga qanday tuzatishlar kiritishga majbur ekanligini va soliq tizimini qanday shakllantirish zarurligini belgilaydi.

Karp M. V. [5] soliq siyosatini davlatning o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi umumiy moliyaviy siyosatining tarkibiy qismi sifatida izohlaydi. Uning ta'kidlashicha, soliq siyosati soliq sohasidagi davlat faoliyati konsepsiyasi, soliq mexanizmi hamda soliq tizimini boshqarish kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi.

O. Sitnikovaning fikricha [6], konsolidatsiyalashgan soliq to'lovchilar guruhiga kiritishda aktivlarni tan olish yoki maxsus qayta baholash zarur. Shuningdek, guruhga kirishdan oldin korxonaning zararlarini o'tkazish tartibi ishlab chiqilishi lozim. Bundan tashqari, konsolidatsiyalashgan soliq to'lovchining moliyaviy-xo'jalik faoliyatining bir xil qiymatga ega bo'lgan subyekt sifatida xalqaro e'tirof etilishiga alohida e'tibor qaratilishi zarurligi qayd etiladi.

Yu. Darkina [7] yirik soliq to'lovchilarning xususiyatlariga to'xtalib, yirik soliq to'lovchilarga quyidagi jihatlar xos ekanligini ta'kidlaydi: katta pul oqimlari, keng ko'lamli hujjatlar aylanmasi, soddalashtirilgan tizim bo'yicha soliqqa tortiladigan turli tarkibiy bo'linmalarning integratsiyasidan foydalanish, shuningdek, mamlakat ichida hamda chet elda turli firmalar bilan hamkorlikning mavjudligi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda soliq ma'murchiligini takomillashtirish masalalarini o'rganishda sifat va miqdoriy tadqiqot usullaridan kompleks foydalanildi. Tadqiqot uchun ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, Moliya vazirligi, Davlat statistika qo'mitasi hamda Jahon banki, OECD, IMF kabi xalqaro tashkilotlarning ochiq rasmiy statistik ma'lumotlari asosida shakllantirildi. Xorijiy tajribani o'rganishda Buyuk Britaniya, Estoniya, Rossiya, Yaponiya va Gruziya soliq ma'murchiligi modellariga oid normativ-huquqiy hujjatlar, ilmiy maqolalar va tahliliy hisobotlardan foydalanildi. Olingan ma'lumotlar taqqoslash tahlil, tizimli yondashuv, mantiqiy umumlashtirish hamda sabab-oqibat tahlili usullari orqali qayta ishlanib, soliq ma'murchiligining samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlandi. Tadqiqot natijalari asosida milliy soliq tizimiga mos ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Rossiya Federatsiyasi so'nggi 10 yil ichida soliq ma'murchiligini raqamlashtirish bo'yicha dunyodagi eng yetakchi davlatlardan biriga aylandi. Rossiya Federal soliq xizmati (FSX) "texnologik platforma" modeliga o'tdi. Rossiyada soliq ma'murchiligini takomillashtirish quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda:

1. "ASK NDS-2" tizimi (QQS nazorati). Rossiyaning eng mashhur va samarali texnologik yutuqlaridan biri hisoblanadi. Ushbu tizim mamlakatdagi barcha QQS (NDS) hisob-fakturalarini real vaqt rejimida tahlil qiladi. Tizim sotuvchi va sotib oluvchi o'rtasidagi zanjirni avtomatik ravishda solishtiradi. Agar zanjirning qaysidir nuqtasida soliq to'lanmagan bo'lsa ("uzilish"), tizim buni darhol aniqlaydi. Natijada Rossiyada QQS bo'yicha soliq uzilishlari darajasi 0,4 % gacha tushgan bo'lib, bu dunyodagi eng past ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.

2. "O'zini o'zi band qilganlar" uchun maxsus rejim (NPD). Rossiya tajribasida jismoniy shaxslarni "yashirin iqtisodiyot"dan chiqarishning oddiy va jozibador mexanizmi ishlab chiqilgan. "Mening solig'im" ("Moy nalog") mobil ilovasi orqali fuqaro soliq organiga bormaydi va hisobot topshirmaydi, balki ilovada chek shakllantiradi. Jismoniy shaxslar bilan ishlaganda 4 %, yuridik shaxslar bilan ishlaganda esa 6 % soliq stavkasi qo'llaniladi. Ushbu rejim joriy etilgach, bir necha million fuqaro rasmiy ro'yxatdan o'tgan.

3. Soliq monitoringi (yirik soliq to'lovchilar uchun). Mazkur tizim an'anaviy tekshiruvlardan ("proverka") voz kechishni anglatadi. Yirik korxonalar o'z ERP-tizimlarini (buxgalteriya ma'lumotlar bazasini) soliq organlariga onlayn tarzda ochib beradi. Soliq organi korxonaning ichki ma'lumotlarini real vaqt rejimida kuzatgani sababli, qayta tekshiruvlar va jarimalar qo'llanilmaydi. Faqat aniqlangan xatoliklar bo'yicha ularni bartaraf etish yuzasidan tavsiyalar beriladi.

4. Avtomatlashtirilgan soddalashtirilgan soliq tizimi (AuSN). Rossiyada kichik biznes uchun yangi eksperimental tizim — "AuSN" joriy etildi. Soliq organi banklardan olingan ma'lumotlar va kassa cheklari asosida soliq summasini mustaqil hisoblaydi. Natijada tadbirkorlar nafaqat hisobot topshirishdan, balki sug'urta badallarini alohida to'lashdan ham ozod etilgan.



Yaponiya soliq ma'murchiligi yuqori intizom, zamonaviy texnologiyalar va soliq to'lovchilar bilan o'rnatilgan o'zaro ishonchli munosabatlari bilan ajralib turadi. Ushbu jarayon Milliy soliq agentligi (NTA) tomonidan boshqariladi va quyidagi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratiladi:

1. "Moviy deklaratsiya" (Blue Return) tizimi. Bu tizim kichik va o'rta biznesni hisob-kitoblarni to'g'ri yuritishga rag'batlantirish maqsadida joriy etilgan. Agar tadbirkor buxgalteriya hisobini belgilangan standartlar asosida shaffof yuritssa, unga "moviy deklaratsiya" topshirish huquqi beriladi. Imtiyozlar qatoriga 650 000 iyenagacha soliq chegirmalari, zararlarni keyingi yillarga o'tkazish hamda oila a'zolariga to'lanadigan ish haqini xarajat sifatida hisobga olish imkoniyati kiradi. Ushbu tizim tadbirkorlarni soliqdan qochishga emas, balki hisobni to'g'ri yuritish orqali foydani oshirishga undaydi.

2. "E-Tax" va "G-Tax" raqamli platformalari. Yaponiya soliq ma'murchiligi to'liq raqamlashtirilgan. Banklar va moliya institutlari mijozlarning daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlarni NTA bazasiga to'g'ridan-to'g'ri uzatadi. Katta ma'lumotlar (Big Data) va sun'iy intellekt yordamida kriptovalyutalar orqali olinadigan daromadlar kabi yashirin iqtisodiy faoliyat turlari aniqlanadi va nazorat qilinadi.

3. "Furusato Nozei" (Hometown Tax) tizimi. Mazkur mexanizm hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish va soliq ma'murchiligini ijtimoiy yo'naltirish maqsadida joriy etilgan. Fuqarolar daromad solig'ining bir qismini o'zlari yashamaydigan, ammo rivojlanishga muhtoj hududlarga ixtiyoriy ravishda yo'naltirishi mumkin. Buning evaziga soliq chegirmalariga ega bo'lib, mahalliy mahsulotlar ko'rinishidagi rag'batlarni oladi.

4. Soliq maslahatchilari instituti (Zeirishi). Yaponiyada soliq ma'murchiligi faqat davlat organlari zimmasiga yuklanmagan. "Zeirishi" deb ataluvchi professional soliq maslahatchilari tizimi keng rivojlangan bo'lib, ular soliq to'lovchi va davlat o'rtasida vositachi vazifasini bajaradi. Soliq hisobotlarining 90 % dan ortig'i aynan litsenziyaga ega mutaxassislar orqali topshiriladi, bu esa soliq organlarining yuklamasini kamaytiradi va xatoliklar sonini minimallashtiradi.

Estoniya soliq ma'murchiligi sohasida dunyoda "raqamli mo'jiza" sifatida e'tirof etilgan. Ushbu tajribaning o'ziga xosligi nafaqat texnologik yechimlarda, balki ma'muriy falsafaning tubdan o'zgarganligida namoyon bo'ladi. Estoniya soliq ma'murchiligining asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

1. "E-Tax" (Elektroonline maksuamet) — 3 daqiqalik tizim. Estoniyada soliq deklaratsiyasini topshirish uchun o'rtacha 3 daqiqa vaqt talab etiladi. Bunga ish beruvchilar, banklar, sug'urta kompaniyalari va boshqa davlat idoralaridan ma'lumotlarning avtomatik yig'ilishi sabab bo'ladi. "Bir marta bosish" (one-click) tamoyiliga ko'ra, soliq to'lovchi tayyor ma'lumotlarni tekshiradi va tasdiqlaydi. Deklaratsiyalarning 99 % dan ortig'i onlayn tarzda topshiriladi.

2. X-Road — ma'lumotlar integratsiyasi asosi. Estoniya soliq ma'murchiligining "umurtqa pog'onasi" bo'lgan X-Road platformasi barcha davlat va xususiy sektor ma'lumotlar bazalarini xavfsiz tarzda bog'laydi. "Faqat bir marta" tamoyiliga ko'ra, davlat bir xil ma'lumotni fuqaro yoki tadbirkordan takroran talab qilmaydi.

3. Taqsimlanmagan foydadan 0 % stavka. Estoniya korporativ soliq tizimini tubdan soddalashtirgan. Agar korxona foydasini reinvestitsiya qilsa, u 0 % foyda solig'i to'laydi. Soliq faqat dividendlar taqsimlanganda undiriladi, bu esa buxgalteriya hisobini ancha yengillashtiradi.

4. e-Residency (elektron rezidentlik). Mazkur tizim orqali Estoniya soliq bazasini global miqyosda kengaytirmoqda. Dunyoning istalgan nuqtasidan turib elektron rezident sifatida kompaniya ochish va soliq to'lash imkoniyati yaratilgan bo'lib, bu davlat budjetiga qo'shimcha valyuta tushumlarini ta'minlamoqda.

Gruziya soliq ma'murchiligi sohasidagi islohotlar jahon hamjamiyati tomonidan "Gruziya mo'jizasi" sifatida e'tirof etilgan. 2004-yildan boshlangan islohotlar natijasida murakkab va korrupsiyalashgan tizim ochiq hamda biznesga do'stona soliq tizimiga aylantirildi. Ushbu tajribaning asosiy ustunliklari quyidagilardan iborat:

1. Soliq turlari va stavkalarini keskin qisqartirish. Islohotlargacha 21 ta soliq turi mavjud bo'lgan bo'lsa, islohotlardan so'ng ularning soni 6 taga (daromad, foyda, QQS, aksiz, mol-mulk va import bojlari) qisqartirildi. Natijada ma'murchilik xarajatlari kamaydi va tizim shaffoflashdi.

2. "Estoniya modeli"ning joriy etilishi (2017-yil). Gruziya korporativ foyda solig'ini isloh qilishda Estoniya tajribasidan foydalandi. Reinvestitsiya qilingan foyda soliqdan ozod qilinib, soliq faqat dividendlar to'langanda undiriladi. Bu iqtisodiy o'sish sur'atlarining tezlashishiga xizmat qildi.

3. Soliq va bojxona tizimining integratsiyasi. Gruziyada soliq va bojxona xizmatlari yagona Daromadlar xizmati (Revenue Service) tarkibida birlashtirildi. "Yagona oyna" tamoyili asosida eksport-import operatsiyalari bilan bog'liq jarayonlar soddalashtirildi, bu esa "yashirin import" muammosini deyarli bartaraf etdi.

4. Soliq nizolarini hal etish va mediatsiya tizimi. Soliq organlari va tadbirkorlar o'rtasidagi nizolarni sudgacha hal etishning samarali mexanizmi joriy qilingan. Moliya vazirligi huzuridagi mustaqil kengash nizolarni tezkor va xolis ko'rib chiqib, tadbirkorlarning huquqlarini himoya qiladi.

Buyuk Britaniya (Birlashgan Qirollik) soliq ma'murchiligi "HM Revenue & Customs" (HMRC) xizmati tomonidan boshqariladi. Britaniya tajribasi soliq to'lovchilar bilan o'ta shaffof muloqot hamda tizimning to'liq raqamli "ekotizim"ga aylantirilgani bilan ajralib turadi. Buyuk Britaniya tajribasining eng muhim yo'nalishlari quyidagilardan iborat:



1. “Making Tax Digital” (MTD) — soliqni raqamli formatga o‘tkazish. Bu Britaniyaning eng ulug‘vor islohoti bo‘lib, uning maqsadi qog‘ozbozlik va inson omili bilan bog‘liq xatolarni nolgat tushirishdan iborat. Tadbirkorlar soliq hisobotlarini HMRC saytida qo‘lda to‘ldirmaydi. Buning o‘rniga, ular HMRC tizimi bilan API orqali bog‘langan maxsus buxgalteriya dasturlaridan (masalan, Sage, QuickBooks, Xero) foydalanishga majbur. Ma’lumotlar yilda bir marta emas, balki har chorakda avtomatik ravishda yuboriladi. Bu soliq organiga yil yakunini kutmasdan iqtisodiy holatni real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi.

2. “Pay As You Earn” (PAYE) tizimi. Buyuk Britaniyada jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i ma’murchiligi dunyodagi eng samarali tizimlardan biri hisoblanadi. Ish beruvchi xodimga maosh to‘lagan zahoti tizim soliq va ijtimoiy sug‘urta badallarini hisoblab, HMRCga o‘tkazadi. Britaniyaliklarning qariyb 80—90 % i yil yakunida soliq deklaratsiyasini topshirishga ehtiyoj sezmaydi, chunki barcha hisob-kitoblar avtomatik ravishda amalga oshiriladi.

3. Soliq xatarlari va “Compliance” (muvofiqlik) tahlili. HMRC tekshiruvlarni o‘tkazishda sun‘iy intellekt hamda “Connect” deb nomlanuvchi tahliliy tizimdan foydalanadi. “Connect” tizimi trillionlab ma’lumotlarni (bank hisobvaraqlari, ko‘chmas mulk reyestrlari, hatto ijtimoiy tarmoqlardagi ma’lumotlar va aviachipta ma’lumotlari) tahlil qiladi. Agar shaxsning rasmiy daromadi uning turmush tarziga (masalan, qimmat avtomobil yoki uy sotib olishiga) mos kelmasa, tizim avtomatik ravishda xavf haqida signal beradi.

4. “Customer Charter” — soliq to‘lovchi huquqlari xartiyasi. Buyuk Britaniyada soliq to‘lovchi “mijoz” (customer) deb ataladi. HMRC o‘z mijozlari oldida quyidagi majburiyatlarni oladi: soliq to‘lovchiga doim yordam berish hamda aybsizlik prezumpsiyasi asosida uni “halol” deb hisoblash; soliq qonunchiligini tushunarli tilda (murakkab yuridik atamalarsiz) izohlash.

Hozirda jahonda soliq siyosati strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Soliq siyosati strategiyasi orqali inklyuziv o‘sish sur‘atlariga erishish, soliq tizimida daromadlarni oshirish qobiliyatini kuchaytirish hamda davlat xarajatlarining barqarorligini ta‘minlash, rivojlanayotgan davlatlarning fiskal siyosatini mustahkamlash, adolatli va inklyuziv soliq tizimini joriy etish, shuningdek, soliq siyosati strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishda raqamli platformalardan samarali foydalanish kabi yo‘nalishlar ushbu sohadagi ilmiy tadqiqot ishlarining ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida yangi mazmundagi strategik maqsadlarni belgilovchi soliq siyosatini shakllantirish va amalga oshirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Soliq to‘lovchilar faoliyatini rag‘batlantirish, soliq yukini bosqichma-bosqich kamaytirish, adolatli soliq tamoyillariga asoslangan soliq tizimini yanada rivojlantirish yo‘nalishida sezilarli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, bunday soliq siyosatining samaradorligini ta‘minlashda hali o‘z yechimini kutayotgan muammolar ham mavjud.

1-yo‘nalish. Soliq xatarlarini boshqarishda “Compliance risk management” (SRM) tizimi sifatini oshirish va tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish.

a) Soliq xatarlarini boshqarishda “Compliance risk management” (CRM) doirasida sohalar, hududlar hamda soliq turlari kesimida yuqori xatarlarni va byudjetga potensial to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasini aniqlash hamda ushbu tizimni takomillashtirib borish. Davlat byudjetiga potensial to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasini aniqlash metodologiyasini ishlab chiqish va shu asosda hisoblanmay qolgan soliq summalarini aniqlash hamda undirish.

b) Barcha soliq nazorat tadbirlari, shu jumladan jinoiy ishlar doirasida o‘tkaziladigan tekshirishlarni Soliq qo‘mitasining Soliq xatarlarini boshqarish “Compliance risk management” (CRM) dasturi orqali amalga oshirish tartibini belgilash.

v) Soliq qo‘mitasi tomonidan soliq nazorati tadbirlarining natijadorligini oshirish hamda xavflarni pasaytirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlarni belgilash, yillik Soliq auditi milliy rejasini qabul qilish va ijrosini ta‘minlash. Soliq qo‘mitasi tomonidan yillik Milliy audit rejasini ishlab chiqish, yil boshida tasdiqlash va ijrosini ta‘minlash, soliq auditi o‘tkazish jarayonlarini raqamlashtirish, shuningdek, soliq organlari uchun ichki me‘yoriy hujjatlarni ishlab chiqish hamda ichki-tashqi manba ma’lumotlaridan foydalanilgan holda tasdiqlangan tartib asosida samarali ishni tashkil etish.

g) Qo‘shilgan qiymat solig‘ini avtomatik ravishda qoplab berishda barqarorlik reytingi yuqori bo‘lgan subyektlar bo‘yicha ketma-ket uch marotaba qoplab berilgandan keyingi arizani soliq auditi o‘tkazilgandan so‘ng qoplash tartibini joriy etish. Reyting mezonlarini suiiste‘mol qilish hamda ballarni sun‘iy shakllantirish omillarini bartaraf etish, shuningdek, subyektlarni reyting toifalariga kiritishning alohida talablari belgilanishi.

d) Kameral soliq tekshiruvi doirasida barcha xatti-harakatlarni soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali amalga oshirish, shu jumladan soliq to‘lovchidan hujjatlarni talab qilib olish, soliq to‘lovchini chaqirtirish va tekshirish natijalari bo‘yicha hujjatlarni soliq to‘lovchiga taqdim etish.

ye) Tadbirkorlik subyektlarini ro‘yxatdan o‘tkazishda muomalaga layoqatsiz shaxslar hamda yirik miqdorda soliq qarzi mavjud bo‘lgan subyektlarning ta‘sischi va rahbarlariga yangi korxona ochishga cheklov o‘rnatish. Shuningdek, haydovchilik guvohnomasini bekor qilish hamda davlat xizmatlarini ko‘rsatishni cheklash.



j) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyundagi "Kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlik subyektlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik o'rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-93-sonli¹ Farmon bilan "20 ming tadbirkor — 500 ming malakali mutaxassis" dasturi doirasida shartnoma shartlarini bajarmagan subyektlarga taqdim etilgan sertifikatlarni bekor qilish hamda ularga berilgan soliq imtiyozlari va preferensiyalarini bekor qilish.

z) Yuqori daromadga ega bo'lgan jismoniy shaxslarning daromadlari bo'yicha elektron ma'lumotlar bazasini shakllantirish va ularning shaxsiy kartochkalarini yuritish.

i) Jismoniy shaxslar, dastlab davlat xizmatchilarining daromadlari va xarajatlarini bosqichma-bosqich majburiy deklaratsiya qilish tartibini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

y) Qurilish sohasida soliq to'lamagan, takroran qonunbuzilish holatlariga yo'l qo'ygan qurilish tashkilotlarining davlat xaridlari va tenderlarda ishtirokini cheklash hamda yashirilgan xodim uchun moliyaviy jarimani minimal ish haqining 10 barobari miqdorida belgilash.

k) Qurilish materiallarining bozor narxidan kelib chiqib soliq bazasini aniqlash tartibini joriy etish.

l) Soliq qarzini qarzdorning shaxsiy g'azna va maxsus hisobvaraqlaridan so'zsiz undirish (qishloq xo'jaligi korxonalari bundan mustasno) hamda mol-mulkka qaratish va taqiq qo'yish to'g'risida qarorlar qabul qilish vakolatlarini soliq organlariga berish.

m) Qurilish, transport, qishloq xo'jaligi, chakana savdo, ijra xizmatlari, yuqori daromadli shaxslar kabi yo'nalishlarda soliq ma'murchiligini yaxshilashga qaratilgan keng qamrovli rejalar (CIP) ishlab chiqishni joriy etish.

n) Soliq organlarida ro'yxatdan o'tmay faoliyat ko'rsatayotganlarni aniqlash tartibini yanada takomillashtirish.

o) Avtomatlashtirilgan xavflarni tahlil qilish modulining samaradorligini baholash asosida soliq to'lovchilarning xatti-harakatlarini bashorat qilish hamda soliq ma'murchiligidagi xavflarni aniqlash tizimini joriy qilish.

2-yo'nalish. Raqamlashtirish va innovatsion yechimlar orqali soliq ma'murchiligi samaradorligini oshirish hamda soliq to'lovchilarning xarajatlarini, shuningdek, byurokratik to'siqlarni kamaytirish.

a) Soliq organlarining yagona integratsiyalashgan axborot-resurs bazasida yirik hajmdagi ma'lumotlar (Big Data) bilan ishlash jarayonlarini optimallashtirish va takomillashtirish. Bunda ma'lumotlar bazasi bosqichma-bosqich tranzaksion hamda tahliliy (analitik) qismlarga ajratiladi. Soliq organlari ma'lumotlar bazasi faoliyat yo'nalishlariga ko'ra bosqichma-bosqich OLTP (onlayn tranzaksiyalarni qayta ishlash) va OLAP (onlayn analitik ishlov berish) tizimlariga ajratiladi.

b) Soliq qo'mitasi tomonidan soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq ma'lumotlarni vazirlik va idoralardan elektron tarzda to'g'ridan-to'g'ri integratsiya qilish orqali olish.

v) Soliq to'lovchilarning tijorat banklaridagi hisobvaraqlari aylanmalari to'g'risidagi ma'lumotlarni Soliq qo'mitasiga integratsiya qilish.

g) Soliq qo'mitasi tarkibiy tuzilmalari funksiyalari va xizmatlarini bosqichma-bosqich raqamlashtirib borish.

d) Soliq organlari faoliyatining tezkorligini oshirish hamda soliq bazasini kengaytirish maqsadida hududiy soliq boshqarmalari va inspeksiylarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bazasini yangilash hamda Soliq qo'mitasining ma'lumotlar bazasidan keng foydalanish.

ye) Soliq to'lovchilarga soliq organlari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarda sun'iy intellekt elementlarini qo'llagan holda soliq to'lovchilarning vaqtini qisqartirish, soliq majburiyatlarini bajarishda sodda va qulay sharoit yaratish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xorijiy mamlakatlarning soliq ma'murchiligi sohasidagi tajribasi tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy soliq tizimi faqatgina majburlov mexanizmi emas, balki yuqori texnologiyalarga asoslangan "raqamli servis" modeliga aylanishi lozim.

Estoniya va Buyuk Britaniya tajribasi ma'lumotlarni to'liq integratsiya qilish orqali soliq to'lovchilarning vaqtini tejash mumkinligini isbotladi. Rossiya va Gruziya modellari soliq turlarini soddalashtirish hamda QQS zanjirini raqamli nazorat qilish orqali "yashirin iqtisodiyot" ulushini keskin kamaytirish imkonini beradi. Yaponiya tajribasi esa soliq to'lovchi bilan intizomga asoslangan "ishonchli sheriklik" munosabatlarini o'rnatish muhimligini ko'rsatdi. O'zbekiston uchun soliq ma'murchiligini takomillashtirish nafaqat soliq stavkalarini pasaytirish, balki soliq to'lash jarayonini biznes subyektlari uchun "sezilmas" va kam xarajatli holatga keltirishni ham nazarda tutadi.

Takliflar. Maqola doirasida olib borilgan tadqiqotlar asosida O'zbekiston soliq tizimini rivojlantirish uchun quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyundagi "Kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlik subyektlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik o'rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-93-sonli Farmon: <https://lex.uz/ru/docs/-6493069>



1. “Soliq ma’lumotlarining yagona raqamli xabi”ni yaratish (Estoniya modeli asosida). Davlat soliq qo’mitasi, banklar, bojxona, kadastr va boshqa davlat idoralarining ma’lumotlar bazalarini X-Road tizimi kabi yagona platformaga to’liq integratsiya qilish. Jismoniy va yuridik shaxslar uchun soliq deklaratsiyalarini soliq organlari tomonidan “avtomatik to’ldirish” (pre-filling) tizimiga o’tish.

2. “Aqli” soliq nazoratini (Smart Audit) joriy etish (Buyuk Britaniya va Rossiya modeli asosida). Inson omilini istisno etgan holda, sun’iy intellekt yordamida soliq to’lovchilarning xavf profilini aniqlash. Intizomli tadbirkorlarni tekshiruvlardan ozod etish hamda resurslarni faqat yuqori xavfli (soliqdan qochish ehtimoli yuqori bo’lgan) subyektlarga yo’naltirish.

3. “Moviy deklaratsiya” (rag’batlantiruvchi hisobot) tizimini tajribadan o’tkazish (Yaponiya modeli asosida). Buxgalteriya hisobini shaffof yurituvchi va raqamli tizimlardan to’liq foydalanuvchi tadbirkorlarga “yashil yo’lak” maqomini berish. Ushbu toifadagi subyektlarga soliq stavkalari bo’yicha imtiyozlar hamda tekshiruvlardan muayyan muddatga “immunitet” berish orqali biznesni legallashtirishga rag’batlantirish.

4. Soliq va bojxona ma’murchiligini yanada yaqinlashtirish (Gruziya modeli asosida). Eksport-import operatsiyalarida QQS zanjirining uzluksizligini ta’minlash maqsadida bojxona va soliq ma’lumotlar bazalarini real vaqt rejimida sinxronlashtirish. Tovarlarining harakatini “chegaradan — yakuniy iste’molchigacha” kuzatish orqali noqonuniy savdoga chek qo’yish.

5. “Mening solig’im” mobil ekotizimini kengaytirish (Rossiya modeli asosida). Barcha mikrobiznes subyektlari va o’zini o’zi band qilgan shaxslar uchun buxgalteriya hisobini avtomatik tarzda yurituvchi bepul mobil ilovalar ko’lamini kengaytirish. Kichik biznes subyektlarining ma’muriy xarajatlarini (buxgalter yollash, hisobot topshirish) minimal darajaga tushirish.

Yuqorida keltirilgan takliflarning O’zbekistonda soliq ma’murchiligini yanada takomillashtirish va raqamlashtirish amaliyotiga joriy etilishi soliq tizimining samaradorligini oshirish hamda uning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi, deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Жўраев А., Сафаров Ф. Солиқ назарияси. Ўқув қўлланма. — Т.: “Iqtisod-moliya”, 2005. — 48 бет.
2. Аронов А. В., Кашин В. А. Налоги и налогообложение: учеб. пособие. — М.: Магистр, 2007. — С. 99–100.
3. Камалнев Тимур Шамилович. Налоговое администрирование крупнейших налогоплательщиков. Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата экономических наук. — Москва, 2009.
4. Майбуrow И. А. Налоги и налогообложение: учебник для студентов вузов, обучающихся по специальностям; под ред. И. А. Майбуrowa. — М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007. — 655 с.
5. Юнак Алексей Алевтинович. Проблемы правового регулирования налогового контроля и учёта крупнейших налогоплательщиков. Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата юридических наук. — Москва, 2009. — С. 12.
6. Дементева Н. М. Налоговая политика государства. URL: https://nsuem.ru/science/publications/science_notes/issue.php?ELEMENT_ID=1689
7. Карп М. В. Налоговый менеджмент: учебник для вузов. — М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2001. — 39 с.
8. Ситникова Ольга Владимировна. Совершенствование налогообложения крупнейших консолидированных налогоплательщиков. Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата экономических наук. — Москва, 2012.
9. Даркина Ю. А. Особенности налогового администрирования крупнейших налогоплательщиков. Interactive Science, № 3 (37), 2019.
10. Soliq qo’mitasi ma’lumotlari. URL: www.soliq.uz



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
